

MULK HUQUQINI HIMOYA QILISH TUSHUNCHASI VA HIMOYA QILISH USULLARI TIZIMI

Soatboyeva Shoxnura Shuxrat qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada mulk tushunchasi va uning huquqiy himoyasi masalalari o'rganilgan. Mulkning iqtisodiy va huquqiy xususiyatlari, shuningdek, mulkka egalik munosabatlarining ijtimoiy-huquqiy mohiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda mulk huquqining shakllanishi, mulkchilikning jamiyatdagi roli va uning huquqiy kafolatlari ko'rib chiqiladi. Maqola mulk huquqining muhimligi va uni himoya qilishning zamonaviy huquqiy mexanizmlari haqida ilmiy asoslangan xulosalar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: mulk, mulk huquqi, huquqiy himoya, mulkchilik, egalik, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, mulkni himoya qilish, huquqiy mexanizmlar.

ПОНЯТИЕ ЗАЩИТЫ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ И СИСТЕМА СПОСОБОВ ЗАЩИТЫ

Соатбоева Шохнурс Шухрат кизи

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в данной статье рассматриваются понятие собственности и вопросы ее юридической защиты. Проанализированы экономические и юридические особенности собственности, а также социально-правовая природа отношений владения собственностью. В исследовании рассматриваются формирование права собственности, роль собственности в обществе и ее юридические гарантии. Статья представляет научно обоснованные выводы о значимости права собственности и современных правовых механизмах его защиты.

Ключевые слова: *собственность, право собственности, юридическая защита, собственничество, владение, социально-правовые отношения, защита собственности, правовые механизмы.*

THE CONCEPT OF PROPERTY RIGHTS PROTECTION AND THE SYSTEM OF PROTECTION METHODS

Soatboyeva Shoxnura Shuxrat qizi

Master's Student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article examines the concept of property and issues related to its legal protection. The economic and legal characteristics of property, as well as the socio-legal nature of ownership relations, are analyzed. The study addresses the formation of property rights, the role of ownership in society, and its legal guarantees. The article provides scientifically grounded conclusions about the importance of property rights and modern legal mechanisms for their protection.*

Keywords: *property, property rights, legal protection, ownership, possession, socio-legal relations, property protection, legal mechanisms.*

KIRISH

Mulk huquqi va uning himoyasi masalalari zamonaviy huquqshunoslik hamda iqtisodiy nazariyalar markazida turgan dolzarb mavzulardan biridir. Mulk tushunchasining aniq belgilanishi va uning huquqiy himoya mexanizmlarini o'rganish jamiyatdagi mulkiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mulk huquqining mohiyati, uning iqtisodiy va huquqiy xususiyatlari, shuningdek, mulkka egalik munosabatlarining ijtimoiy-huquqiy mazmuni chuqur tahlil qilinishi talab etiladi. Ushbu ishda mulk tushunchasi, uning huquqiy himoyasi va mulkiy munosabatlarning xususiyatlari turli olimlarning nuqtai nazarlari asosida ko'rib chiqiladi.

Mulk huquqini muhofaza qilish tushunchasi hamda uning funksiyalarini o'rganish ushbu institutning mazmunini aniqlashtirishni talab etadi. Boshqacha aytganda, mulk huquqi deganda nimani tushunish kerakligi masalasiga aniqlik kiritmasdan turib, uning huquqiy himoyasi bilan bog'liq masalalarni to'laonli tahlil qilish imkonsizdir. Shu bilan birga, mulk tushunchasi ilmiy-nazariy jihatdan hanuzgacha yakdil talqinga ega emas.

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Normativ-huquqiy tahlil: O'zbekiston Respublikasining mulk huquqi va uni himoya qilishga oid qonunchilik bazasi, xususan, Fuqarolik kodeksi, "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi.

Taqqoslash usuli: O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlar bilan taqqoslandi.

Ilmiy tahlil: O'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, xalqaro konferensiyalar materiallari va amaliyotdagi tajribalar tahlil qilindi.

Solishtirma usul: Turli olimlarning mulk huquqi va uni himoya qilish tizimi haqidagi fikrlari o'rganildi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar asosida muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ilmiy adabiyotlarda mulkka oid bir nechta yondashuv va nazariyalar mavjud. Ulardan biri – mulkni inson shaxsiyati davomchisi sifatida ko'radigan yondashuvdir. Bu nazariyaga ko'ra, mulk insonning moddiy olamdagi o'zini ifoda etish shakli sifatida talqin etiladi. Masalan, rus olimi K.I. Sklovskiy mulk huquqiga aniq ta'rif berishga urinish bu institutning asl mohiyatini toraytiradi, degan fikrni

ilgari suradi va mulkka xos bo'lgan asosiy belgilardan istisnolik, mutlaq xarakter va muddat bilan cheklanmaganlikni ajratib ko'rsatadi¹.

H.R.Rahmonqulovning e'tiroficha, xususiy mulkka nisbatan tabiiy holatda vujudga kelgan huquq odamlar o'rtasida amaldagi urf-odatlariga asoslangan ijtimoiy munosabatlarning yakuni hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan xususiy mulk huquqini davlat tashkil topmasdan tabiiy ravishda vujudga kelgan ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflash mumkin. Davlat siyosiy hokimiyat sifatida paydo bo'lishi bilan o'z faoliyatini mavjud tabiiy boyliklardan foydalanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish natijasida ushbu boyliklardan hosil bo'lgan mol-mulkni o'zlashtirish borasida tartib-qoidalarini o'rnatish, xususiy mulk egalarining huquqlarini o'zgalarning g'ayriqonuniy harakatlaridan himoya qilish va kafolatlash bilan bog'liq vazifalarni bajarishga qaratadi².

Xuddi shuningdek, rus olimi N.N.Alekseyev ham mulkni inson shaxsiyatining tabiiy davomchisi sifatida baholab, uni shaxsning individualligi va ichki xususiyatlarini aks ettiruvchi huquqiy shakl deb hisoblaydi³.

Mulkiy munosabatlar — bu jamiyatda mavjud moddiy boyliklar ustidan insonlar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy va huquqiy munosabatlar majmuasidir. Ular mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi. Mazkur munosabatlar har qanday iqtisodiy tizimning asosini tashkil etadi va jamiyatda ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlarining barqarorligi aynan shu munosabatlarning huquqiy asoslar bilan mustahkamlanganligiga bog'liqdir.

¹ Скловский К.И. Собственность в гражданском праве. - М.: Статут, 2008. - С. 16-18.

² Раҳмонкулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи объектлари. - Тошкент: ТДЮИ, 2009. - 28 б.

³ Алексеев Н.Н. Собственность и социализм // Русская философия собственности. - СПб., 2003. - С. 354.

Mulkchilik, eng avvalo, shaxsning biror moddiy ne'matga bo'lgan egalik hissi, ya'ni uni "o'zining boyligi" deb qabul qilishi bilan tavsiflanadi. Bu holatda mulk nafaqat obyektiv iqtisodiy qiymatga ega vosita, balki shaxs ongida muayyan subyektiv ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Shu bilan birga, mulkka egalik faqat shaxsiy tasavvur bilan emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan va huquqiy asosda tartibga solinadigan egalik huquqlari orqali ham mustahkamlanadi.

Shuningdek, mulk munosabatlari ikki qatlamda namoyon bo'ladi:

- shaxsiy (subyektiv) darajada — bu insonning mulkka bo'lgan egalik hissi, unga tegishlilik tuyg'usi bilan bog'liq;
- ijtimoiy-huquqiy (obyektiv) darajada — bu jamiyat tomonidan mazkur egalikning tan olinishi va himoya qilinishi, ya'ni huquqiy mustahkamlilik.

Shunday qilib, mulkiy munosabatlar inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab iqtisodiy-huquqiy aloqalarni ifodalaydi. Ular nafaqat moddiy resurslarga egalik qilish bilan bog'liq bo'lib, balki shaxsning ijtimoiy maqomi, iqtisodiy erkinligi va huquqiy kafolatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Mulkni faqat narsa sifatida emas, balki unga nisbatan huquqiy vakolatlar tizimi sifatida tushunish hozirgi zamon huquqshunosligi va iqtisodiy nazariyalarida ustuvor yondashuv hisoblanadi.

Ba'zi mualliflar mulkni quyidagicha talqin qiladilar: u — tabiat resurslari va ishlab chiqarish faoliyati natijalarini shaxslar tomonidan o'zlashtirishning ijtimoiy-huquqiy shakli bo'lib, huquq esa mulkni iqtisodiy munosabatlarda yuridik jihatdan mustahkamlab beradi; mulk — shaxslar o'rtasidagi narsa yuzasidan yuzaga keladigan munosabatlar natijasidir; mulk — iqtisodiy-huquqiy munosabatdir; shuningdek, mulk — shaxsga tegishli bo'lgan narsalar va ularga oid munosabatlarni himoya qiluvchi va mustahkamlovchi normalar tizimidir⁴.

⁴ Rahmonqulov H., Ro'zinazarov Sh., Oqyulov O., Azizov X., Imomov N. Xususiy mulk obyektlarining huquqiy maqomi. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, 2007, — 55 b.

Ilmiy adabiyotlarda mulk tushunchasini egalikka olish shakli sifatida talqin qiluvchi nazariya mavjud. Ushbu yondashuv, avvalo, mulkning iqtisodiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Bunda mulk, tabiat va iqtisodiyotda sodir bo‘ladigan obyektiv “egallash” jarayoni sifatida emas, balki bu jarayonning natijasi — ya’ni obyektiv haqiqat sifatida mavjud bo‘lgan “egalik qilinishi” yoki “qarashli bo‘lishi” holati sifatida ko‘riladi.

Mazkur nazariy nuqtai nazardan, ayrim tadqiqotchilar mulkni egallash jarayonining natijasi, ya’ni mulkka egalik qilish holati deb baholaydi⁵.

Mulk tushunchasini sharhlovchi yondashuvlar orasida yana bir muhim nazariya mavjud bo‘lib, u mulkni shaxsning narsa bilan bo‘lgan munosabati orqali ifodalaydi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, mulk – bu moddiy ne‘matlar borasida odamlar o‘rtasidagi munosabatlar tizimi bo‘lib, ushbu ne‘matlarning ayrim shaxslarga yoki jamoalarga qarashli bo‘lishi va ularning boshqa barcha shaxslardan ajratilganligi (ya’ni begonalashtirilganligi) bilan tavsiflanadi⁶.

Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, mulk huquqi — bu insonning narsaga bo‘lgan shaxsiy, individual munosabati sifatida yuzaga chiqadi. Bunday munosabat esa, bevosita boshqa shaxslar bilan bog‘liq ijtimoiy aloqalar orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni “bu narsa menga tegishli, boshqalarga esa emas” degan huquqiy va ijtimoiy signalni anglatadi.

Mazkur nazariy yondashuv ayrim olimlar tomonidan tanqid qilingan bo‘lsa-da, mulkni shaxsning o‘z mulkiga bo‘lgan munosabati orqali sharhlash yondashuvi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan eng asosli va mazmunli deb e’tirof etiladi. Chunki aynan bu yondashuv mulk huquqining tub mohiyatini, ya’ni shaxsning narsaga nisbatan egalik, foydalanish va tasarruf qilishdagi mustaqil

⁵ Алексеев С.С. Право собственности. Проблемы теории. - М.: Норма, 2008. - С. 15.

⁶ Гражданское право: Учебник: В 3 т. / Под ред. А.П. Сергеева, Ю.К. Толстого. - СПб., 2001. - Т. 1. - С. 403.
SJIF: 5.051

irodasini eng to'g'ri aks ettiradi. Shu bois, bu munosabat, shuningdek, mulk huquqi subyektining yuridik maqomidan qat'i nazar, umumiy mohiyatini yo'qotmaydi.

Biroq, shunga qaramay, milliy fuqarolik huquqi nazariyasida bu holat hali to'liq tan olinmagan. O'zbekistonda mulk huquqining huquqiy tartibga solinishi jarayonida mavjud cheklovlar va ularning ijtimoiy ahamiyati nazariy jihatdan yetarli darajada asoslab berilmagan. Milliy qonunchilikda amalda mavjud bo'lgan cheklovlar tizimi borligiga qaramay, bu holat nazariy jihatdan mulk huquqining mutlaq emasligi sifatida qaralmaydi.

Shu tariqa, zamonaviy fuqarolik huquqi rivojlanish tendensiyalari mulk huquqini jamiyat va davlat manfaatlarini hisobga oluvchi ijtimoiy yo'naltirilgan huquqiy institut sifatida qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.

Mana shu asosda huquqlarni (shu jumladan mulk huquqlarini) himoya qilish va huquqlarni qo'riqlash tushunchalari farqlanadi. Fuqarolik-huquqiy mulk va boshqa mulk huquqlarini himoya qilish asosan ushbu munosabatlarning normal va to'siqsiz rivojlanishini ta'minlovchi barcha fuqarolik-huquqiy normalarning majmuasi orqali amalga oshiriladi. Fuqarolik-huquqiy mulk va boshqa mulk huquqlarini qo'riqlash esa ularning buzilishi holatlariga nisbatan qo'llaniladigan torroq tushuncha bo'lib, mulk huquqlarini buzganlarga qarshi qo'llaniladigan fuqarolik-huquqiy vositalar (choralar) majmuasini ifodalaydi.

Mulk munosabatlarini himoya qilishda fuqarolik huquqining turli normalari va institutlari turlicha rol o'ynaydi. Ularning ba'zilar ushbu munosabatlarni tan olish yo'li bilan himoya qiladi va shu bilan fuqarolik qonunining himoyasini ularga tatbiq etadi. Masalan, fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli mulkning miqdori va qiymatiga nisbatan cheklovlarning

yoʻqligi haqidagi normalar yoki oʻz mulkini oldingi huquqiy tartibga nomaʼlum boʻlgan xoʻjalik jamiyatlari va sherikliklarga egalik qiluvchi shaxslar sifatida tan olish haqidagi normalar shular jumlasidandir. Boshqa qoidalar mulk huquqlarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni taʼminlaydi va bu maʼnoda ularning himoyasi uchun ham muhimdir (masalan, koʻchmas mulk huquqlarini davlat roʻyxatidan oʻtkazish qoidalari). Nihoyat, uchinchi guruh qoidalar mulk huquqlarini buzganlarga nisbatan noxush oqibatlarni belgilaydi, yaʼni toʻgʻridan-toʻgʻri ularni huquqbuzarliklardan himoya qiladi⁷.

Har ikkala holatda ham gap faqatgina oʻz tabiatida saqlanib qolgan, aniq individual belgilar bilan ajralib turuvchi ashyoga boʻlgan huquqni himoya qilish usullari haqida bormoqda. Aynan shunday narsa ashyoviy huquqning obyekti boʻlishi mumkin. Agar bu narsa yoʻqotilgan boʻlsa yoki uni egasiga qaytarishning iloji boʻlmasa, unda mulkdorga faqat yetkazilgan zararni qoplash haqida daʼvo qilish imkoni mavjud boʻladi. Bunday holat esa allaqachon ashyoviy emas, balki majburiyatli (obligatsiyaviy) huquqiy himoya usullariga tegishlidir⁸.

Rus olimi V.P. Kamyshanskiy mulk huquqini himoya qilishning barcha usullarini toʻrt guruhga ajratishni taklif etadi:

- ashyoviy-huquqiy usullar;
- majburiyat-huquqiy usullar;
- fuqarolik huquqining turli institutlaridan kelib chiqadigan mulk huquqini himoya qilish usullari;

⁷ Эргашев В.Ё. Ўзбекистон Республикасида мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари ва ривожланиш истикболлари. –Тошкент: ТДЮИ, 2009. -157 б.

⁸ См.: Суханов Е.А. О понятии и видах вещных прав в российском гражданском праве // Журнал российского права. - 2006. - № 12. - С. 47.

- qonunda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra mulk huquqi tugatilganda mulkdorning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik-huquqiy vositalar⁹.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mulk huquqining tushunchasi va uning himoya qilish usullari tizimi huquqiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda markaziy o'rin tutadi. Mulk – bu shaxsning moddiy ne'matlarga egalik huquqi bo'lib, uning huquqiy himoyasi jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitlarda mulk huquqi nafaqat shaxsning erkinligi va iqtisodiy manfaatlarini ifodalasa, balki davlat va jamiyat manfaatlarini ham muvozanatlash orqali ijtimoiy yo'naltirilgan huquqiy institut sifatida shakllanmoqda.

Mulk huquqini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirishva zamonaviy raqamli dunyoga moslashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari surilaadi:

1. Mulk huquqini himoya qilish bo'yicha yagona normativ-huquqiy mexanizmni ishlab chiqish lozim, bunda davlat organlari, sudlar va boshqa vakolatli tuzilmalarning vakolat va majburiyatlari aniq belgilanadi. Bu sud amaliyotida bir xil yondashuvni ta'minlaydi.

2. Sud amaliyotida mulk huquqini himoya qilishning muqobil usullarini rivojlantirish zarur, xususan, meditatsiya va arbitraj tartiblarini kengroq tatbiq etish mulk egalari va da'vogarlar o'rtasida nizo va kelishmovchiliklarni tez va adolatli hal etish imkonini beradi.

⁹ Камышанский В. П. Право собственности на недвижимость: вопросы ограничений. - Элиста, 1999 – С. 21-22

3. Elektron kadastr va raqamlashtirilgan mulk registrilarini kengaytirish orqali mulk huquqlarining ishonchli ro'yxatga olinishini ta'minlash kerak. Bu mulkka oid bahsli holatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

4. Mulk huquqini buzgan shaxslar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish zarur, ayniqsa, mulkka zarar yetkazish yoki noqonuniy egallab olish holatlarida huquqiy jazolash choralarini qat'iylashtirish lozim.

Shunday ekan, mulk huquqini himoya qilish tizimini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish huquqiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR/LITERATURA/REFERENCES:

1. Раҳмонкулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқи объектлари. – Тошкент: ТДЮИ, 2009. – 28 б.
2. Скловский К.И. Собственность в гражданском праве. - М.: Статут, 2008. – С. 16-18.
3. Алексеев Н.Н. Собственность и социализм // Русская философия собственности. - СПб., 2003. - С. 354
4. Имомов Н.Ф., Эргашев В.Ё, Ашурова Н.А. Хусусий мулкнинг ҳуқуқий режимини такомиллаштириш. Ахборот-таҳлилий материал. – Тошкент: ТДЮУ, 2016. – 61 б
5. Эргашев В.Ё. Ўзбекистон Республикасида мулк ҳуқуқининг долзарб муаммолари ва ривожланиш истикболлари. –Тошкент: ТДЮИ, 2009. -157 б.

-
6. Гражданское право: Учебник: В 3 т. / Под ред. С.А. Степанова. - М., 2010. - Т. 1. – 690 с.
 7. Камышанский В. П. Право собственности на недвижимость: вопросы ограничений. - Элиста, 1999 – С. 21-22